So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida avtomobil sanoati eng yirik va innovatsion tarmoqlardan biri sifatida shakllanib, global ishlab chiqarish, savdo va marketing jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Avtomobil sanoati nafaqat transport vositalari ishlab chiqarish bilan cheklanib qolmay, balki zamonaviy marketing texnologiyalari, brend boshqaruvi hamda raqamli transformatsiya jarayonlari bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanmoqda. Ayniqsa, global raqobatning keskin kuchayishi sharoitida avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniyalar marketing strategiyalari va brend strategiyalarini integratsiyalashgan holda qo'llash orqali bozorda ustunlikka erishishga intilmoqda. Shu sababli avtomobil sanoatida marketing va brend strategiyalarining o'zaro integratsiyasi korxonalar raqobatbardoshligini oshirish, iste'molchilar sodiqligini shakllantirish hamda brend kapitalini mustahkamlashda muhim strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

So'nggi besh yil davomida global avtomobil bozori pandemiya, logistika zanjirlaridagi uzilishlar, yarimo'tkazgichlartanqisligi hamda energiya bozorida o'zgarishlar kabi omillarta'sirida sezilarli transformatsiyani boshdan kechirdi. Shunga qaramay, avtomobil sanoati global iqtisodiyotning muhim drayverlaridan biri bo'lib qolmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilda jahon bo'yicha yengil avtomobillar savdosi taxminan 91,7 million donani tashkil etib, bu ko'rsatkich pandemiyadan oldingi davr darajasidan ham yuqori bo'lgan. Shu bilan birga, global avtomobil bozori geografik jihatdan ham kengayib bormoqda [1]. Masalan, AQShda avtomobil savdosi 2024-yilda 16 milliondan ortiq avtomobilni tashkil etgan bo'lsa, Hindistonda 5 milliondan ortiq, Yaponiyada esa 4 milliondan ortiq avtomobil sotilgan. Bunday ko'rsatkichlar avtomobil sanoatining global iqtisodiyotdagi ulushi va strategik ahamiyati yuqori ekanligini tasdiqlaydi.

Zamonaviy avtomobil sanoatining rivojlanishida marketing va brend strategiyalarining integratsiyasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Avtomobil kompaniyalari mahsulot sifatini oshirish bilan bir qatorda marketing kommunikatsiyalarini rivojlantirish, iste'molchi ehtiyojlarini chuqur o'rganish hamda brend imijini mustahkamlashga qaratilgan kompleks strategiyalarni amalga oshirmoqda. Ayniqsa, raqamli marketing texnologiyalarining rivojlanishi avtomobil kompaniyalari uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda [2]. Bugungi kunda avtomobil ishlab chiqaruvchilar onlayn savdo platformalari, ijtimoiy tarmoqlar marketingi, mobil ilovalar va raqamli servis xizmatlari orqali iste'molchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot o'rnatmoqda. Natijada marketing strategiyalari va brend boshqaruvi jarayonlari o'zaro integratsiyalashgan holda rivojlanmoqda.

Jahon avtomobil bozorida kuzatilayotgan muhim tendensiyalardan yana biri elektromobillar segmentining jadal rivojlanishidir. Xalqaro energetika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda jahon bozorida sotilgan avtomobillarning beshdan bir qismi elektromobillar hissasiga to'g'ri kelgan. 2025-yilda esa elektromobillar savdosi 20 million donadan ortiq bo'lib, oldingi yilga nisbatan sezilarli o'sish qayd etilgan [3]. Bu jarayon avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniyalarni o'z marketing va brend strategiyalarini ekologik barqarorlik, innovatsion texnologiyalar va "yashil iqtisodiyot" tamoyillari bilan uyg'unlashtirishga majbur qilmoqda. Natijada elektromobil ishlab chiqarish, aqlli mobilitet tizimlari hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish global avtomobil brendlarning marketing strategiyalarida muhim yo'nalishlardan biriga aylanmoqda (1-jadval).

1-jadval. Avtomobil sanoatida marketing kommunikatsiyalarining asosiy vositalari¹

№	Marketing vositasi	Tavsifi	Brend strategiyasiga ta'siri
1	Reklama faoliyati	Televizion, tashqi va raqamli reklama vositalari	Brend tanilishini oshiradi
2	Ijtimoiy tarmoqlar marketingi	Raqamli platformalar orqali iste'molchilar bilan muloqot	Mijozlar bilan interaktiv aloqani ta'minlaydi
3	PR faoliyati	Brend imijini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlar	Brend reputatsiyasini mustahkamlaydi
4	Kontent marketingi	Informatsion va ta'limiy kontent yaratish	Brendga nisbatan ishonchni oshiradi

Mazkur jadvalda avtomobil sanoatida marketing kommunikatsiyalarining asosiy vositalari hamda ularning brend strategiyasiga ta'siri yoritilgan. Jadvalga ko'ra, avtomobil kompaniyalari marketing faoliyatida reklama, ijtimoiy tarmoqlar marketingi, PR faoliyati va kontent marketingi kabi kommunikatsiya vositalaridan keng foydalanadi. Reklama faoliyati brendning ommaviy tanilish darajasini oshirishga xizmat qilsa, ijtimoiy tarmoqlar marketingi iste'molchilar bilan interaktiv muloqot o'rnatish imkonini beradi. Shu bilan birga, PR faoliyati brendning ijobiy imijini shakllantirish hamda uning reputatsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi. Kontent marketingi esa iste'molchilarga foydali va informatsion materiallar taqdim etish orqali brendga nisbatan ishonchni oshiradi. Natijada ushbu marketing kommunikatsiya vositalarining integratsiyalashgan qo'llanilishi avtomobil brendlarning bozordagi raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

1 Muallif ishlanmasi.



Bundan tashqari, avtomobil sanoatida brend strategiyalarining rivojlanishi iste'molchi xulq-atvori bilan ham chambarchas bog'liq. Zamonaviy iste'molchilar avtomobil tanlashda faqat texnik ko'rsatkichlarga emas, balki brend imiji, innovatsion texnologiyalar, ekologik xavfsizlik hamda servis xizmatlari sifatiga ham katta e'tibor qaratmoqda [4]. Shu sababli avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniyalar marketing strategiyalarini brend boshqaruvi bilan integratsiyalash orqali iste'molchilar bilan uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirishga intilmoqda. Bunday yondashuv kompaniyalarga nafaqat bozor ulushini oshirish, balki brend kapitalini mustahkamlash imkonini ham beradi.

O'zbekiston avtomobil bozori ham so'nggi yillarda faol rivojlanayotgan sanoat tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda mamlakatda 402 mingdan ortiq avtomobil sotilgan bo'lib, bu avtomobil sanoatining milliy iqtisodiyotdagi muhim o'rin egallashini ko'rsatadi. 2025-yilda esa yangi yengil avtomobillar savdosi 370 ming dona atrofida bo'lib, bozor hajmi o'sishda davom etgan. Shuningdek, 2025-yilning dastlabki o'n bir oyida mamlakatda 379 mingdan ortiq avtomobil sotilgani qayd etilgan [5]. Bu jarayon O'zbekistonda avtomobil sanoatining jadal rivojlanayotganini hamda marketing va brend strategiyalarining ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, avtomobil sanoatida marketing va brend strategiyalarining integratsiyasini o'rganish, xalqaro tajribalarni tahlil qilish hamda ularni milliy avtomobil sanoati rivojiga moslashtirish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Avtomobil sanoatida marketing va brend strategiyalarining integratsiyasi masalasi marketing nazariyasi, strategik menejment hamda iste'molchi xulq-atvori bilan bog'liq bo'lgan muhim ilmiy yo'nalishlardan biridir. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, global avtomobil sanoatida brend strategiyasining samaradorligi marketing kommunikatsiyalari, innovatsion texnologiyalar, brend kapitali hamda iste'molchilar bilan uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirish jarayonlari bilan chambarchas bog'liq. Zamonaviy tadqiqotlarda brend nafaqat mahsulotni identifikatsiya qiluvchi element, balki korxonaning strategik aktivlaridan biri sifatida talqin etiladi. Brend kapitali iste'molchilar ongida shakllangan tasavvurlar, assotsiatsiyalar va sodiqlik darajasi orqali kompaniyaning raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi.

Xorijiy olimlar marketing va brend strategiyalarining integratsiyasi masalasini turli ilmiy yondashuvlar asosida o'rganib kelmoqda. Jumladan, marketing nazariyasida brend kapitali konsepsiyasini rivojlantirgan olimlardan biri D. Aaker hisoblanadi. Uning ilmiy qarashlariga ko'ra, brend kapitali kompaniyaning muhim strategik resursi bo'lib, u brend xabardorligi, brend assotsiatsiyalari, qabul qilingan sifat va brendga sodiqlik kabi asosiy komponentlar orqali shakllanadi². Aaker ta'kidlaganidek, kuchli brend kapitaliga ega kompaniyalar bozorda yuqori narx siyosatini qo'llash, marketing xarajatlarini kamaytirish hamda yangi mahsulotlarni muvaffaqiyatli joriy etish imkoniyatiga ega bo'ladi [6].

Brend strategiyasini iste'molchi nuqtai nazaridan o'rgangan yana bir muhim olim K. Keller hisoblanadi. U ishlab chiqqan Customer-Based Brand Equity (CBBE) modeli brend qiymatini iste'molchilarning brend haqidagi bilimlari, tasavvurlari va emotsional munosabatlari orqali shakllanishini asoslab beradi. Keller modeliga ko'ra, brend identifikatsiyasi, brend ma'nosi, iste'molchi reaksiyasi va brend rezonansi bosqichlari orqali brend bilan mijoz o'rtasida mustahkam aloqalar shakllanadi³. Ushbu model marketing strategiyalarini ishlab chiqishda iste'molchilar tajribasiga asoslangan yondashuvni qo'llash zarurligini ko'rsatadi [7].

Marketing va brend strategiyalarining integratsiyasi masalasini o'rgangan yana bir muhim olim J. Kapferer hisoblanadi. U brend identifikatsiyasi prizmasi (Brand Identity Prism) modelini ishlab chiqib, brendning funksional, emotsional va ijtimoiy komponentlarini kompleks tarzda tahlil qilgan⁴. Kapfererining fikricha, kompaniyaning marketing strategiyasi brend identifikatsiyasi bilan uyg'unlashgandagina brendning bozordagi pozitsiyasi mustahkamlanadi. Ushbu model avtomobil sanoatida brend imiji va iste'molchi tajribasini shakllantirishda muhim metodologiya asos bo'lib xizmat qiladi [8].

Shuningdek, strategik marketing nazariyasini rivojlantirgan olimlardan biri P. Kotler marketing strategiyasini korxona raqobatbardoshligini oshiruvchi asosiy boshqaruv instrumenti sifatida talqin etadi. Kotlarning ilmiy qarashlariga ko'ra, zamonaviy marketing tizimida brend strategiyasi marketing kommunikatsiyalari, innovatsion mahsulot siyosati hamda iste'molchi ehtiyojlarini chuqur o'rganish bilan integratsiyalashgan holda shakllanishi zarur⁵. Ayniqsa, global avtomobil sanoatida marketing va brend strategiyalarining integratsiyasi kompaniyalarning xalqaro bozordagi pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi [9].

2 Aaker, D. Managing Brand Equity: Capitalizing on the Value of a Brand Name. New York: The Free Press, 1991. – 336 p.

3 Keller, K. Strategic Brand Management: Building, Measuring, and Managing Brand Equity. 4th ed. Pearson Education Limited, 2013. – 608 p.

4 Kapferer, J. The New Strategic Brand Management: Advanced Insights and Strategic Thinking. London: Kogan Page Publishers, 2012. – 512 p.

5 Kotler, P., Keller, K. Marketing Management. 15th ed. Pearson Education, 2016. – 714 p



MDH va mahalliy iqtisodiy maktab vakillari ham marketing va brend strategiyalarining korxona faoliyatidagi ahamiyatini o'rganishga katta hissa qo'shgan. Masalan, rus iqtisodchi olimi E. Golubkov marketing strategiyasini korxona rivojlanishining asosiy boshqaruv mexanizmi sifatida talqin etadi⁶. Uning fikricha, marketing strategiyasining samarali amalga oshirilishi korxona brendining bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi hamda iste'molchilar bilan barqaror aloqalarni shakllantirishga xizmat qiladi [10].

MDH hududidagi yana bir tadqiqotchi A. Romanov marketing kommunikatsiyalarining brend imijini shakllantirishdagi rolini o'rganib, zamonaviy marketing tizimida brend strategiyasini kommunikatsion marketing bilan integratsiyalash zarurligini ta'kidlaydi⁷. Romanovning fikricha, reklama, PR faoliyati va raqamli marketing vositalari brend strategiyasining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi [11].

O'zbekistonlik iqtisodchi olim A. Vahobov o'z tadqiqotlarida marketing strategiyalarining milliy iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni oshirishdagi rolini tahlil qilib, brend strategiyasini korxonaning strategik rivojlanishining muhim elementi sifatida baholaydi⁸. Uning fikricha, marketing strategiyalari bilan uyg'unlashgan brend boshqaruvi tizimi korxonaga nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro bozorda ham ustunlik beradi [12].

Mahalliy marketing tadqiqotlarida B. Salimov korxonalarda marketing boshqaruvi tizimini takomillashtirish masalalarini o'rganib, brend strategiyasining korxona imijini shakllantirish va bozor ulushini oshirishdagi rolini asoslab bergan⁹. Uning ilmiy qarashlariga ko'ra, marketing va brend strategiyalarining integratsiyasi korxona faoliyatida innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda iste'molchilar ehtiyojlariga mos mahsulotlar ishlab chiqarishga xizmat qiladi [13].

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, marketing va brend strategiyalarining integratsiyasi zamonaviy avtomobil sanoatida korxonalarning raqobatbardoshligini oshirish, iste'molchilar sodiqligini shakllantirish hamda brend kapitalini rivojlantirishda muhim strategik omil hisoblanadi. Xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari avtomobil sanoatida marketing strategiyalarini brend boshqaruvi bilan uyg'unlashtirish zarurligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, raqamli marketing texnologiyalari, elektromobillar segmentining rivojlanishi hamda global marketing kommunikatsiyalarining kengayishi avtomobil brend strategiyalarini yanada takomillashtirishni talab etmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda avtomobil sanoatida marketing va brend strategiyalarining integratsiyasini o'rganish hamda ularning korxonalar raqobatbardoshligiga ta'sirini baholash maqsadida kompleks ilmiy metodologiya qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv asosida tahlil, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil, kontent tahlil, induksiya va deduksiya hamda ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Xususan, global avtomobil sanoatida faoliyat yuritayotgan yetakchi kompaniyalarning marketing strategiyalari, brend boshqaruvi mexanizmlari hamda marketing kommunikatsiyalarining integratsiyalashuv jarayonlari qiyosiy tahlil asosida o'rganildi. Shuningdek, tadqiqotda marketing nazariyasi, strategik menejment va brend kapitali konsepsiyalariga asoslangan ilmiy yondashuvlardan foydalanilib, avtomobil sanoatida marketing va brend strategiyalarining integratsiyalashgan modeli shakllantirildi hamda uning korxona raqobatbardoshligiga ta'siri ilmiy jihatdan asoslandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon avtomobil sanoati so'nggi yillarda texnologik innovatsiyalar, raqamli transformatsiya hamda iste'molchilar xulq-atvoridagi o'zgarishlar ta'sirida jadal rivojlanib bormoqda. Bu jarayon avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniyalarni marketing strategiyalari va brend strategiyalarini o'zaro integratsiyalashgan holda shakllantirishga undamoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, global avtomobil bozorida raqobatning keskin kuchayishi sharoitida kompaniyalar mahsulot innovatsiyasi, marketing kommunikatsiyalari va brend imijini rivojlantirish orqali iste'molchilar e'tiborini jalb etishga intilmoqda. Shu sababli avtomobil sanoatida marketing va brend strategiyalarining integratsiyasi kompaniyalarning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim strategik instrument sifatida namoyon bo'lmoqda.

So'nggi besh yil davomida jahon avtomobil bozori sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirdi. Pandemiya davrida avtomobil ishlab chiqarish hajmi qisqargan bo'lsa-da, 2022-yildan boshlab bozor asta-sekin tiklana boshladi. Jahon statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda dunyo bo'yicha avtomobil savdosi taxminan 78 million dona atrofida bo'lgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 90 million donaga yaqinlashgan. 2026-

6 Golubkov, Э. Маркетинг: стратегии, планы, структуры. Москва: Финпресс, 2003. – 496 с.

7 Романов, А. Маркетинг. Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2005. – 560 с.

8 Vahobov, A., Xajibakiyev, Sh., Tadjibayeva, D. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2014. – 464 b.

9 Salimov, B. Marketing boshqaruvi. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2018. – 312 b.



yilga kelib esa global avtomobil savdosi 92 million dona atrofida bo'lishi prognoz qilinmoqda [14]. Bu jarayon avtomobil kompaniyalarini marketing strategiyalarini qayta ko'rib chiqish hamda brend boshqaruvi tizimini takomillashtirishga undamoqda.


Tahlillar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy avtomobil sanoatida marketing strategiyalarining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: raqamli marketing texnologiyalarini joriy etish, iste'molchi tajribasiga asoslangan marketing yondashuvlarini rivojlantirish, innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqish hamda global marketing kommunikatsiyalarini kengaytirish. Bugungi kunda avtomobil kompaniyalari an'anaviy marketing vositalari bilan bir qatorda ijtimoiy tarmoqlar marketingi, kontent marketingi, mobil ilovalar va elektron savdo platformalaridan faol foydalanmoqda. Masalan, global avtomobil brendlarining aksariyati avtomobillarni onlayn buyurtma qilish imkoniyatini yaratib, mijozlarga avtomobilni tanlash, konfiguratsiya qilish va xarid qilish jarayonini raqamli platformalar orqali amalga oshirish imkonini bermoqda. Bu esa marketing va brend strategiyalarining integratsiyalashgan modelini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda avtomobil sanoatida kuzatilayotgan muhim tendensiyalardan biri elektromobillar bozorining jadal rivojlanishidir. Xalqaro energetika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda jahon bo'yicha elektromobillar savdosi taxminan 3 million donani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 14 million donaga yetgan. 2024-yilda esa elektromobillar savdosi 17 million donadan oshib, global avtomobil savdosining qariyb 20 foizini tashkil etgan. 2025-yilga kelib esa elektromobillar savdosi 20 million donaga yaqinlashishi prognoz qilinmoqda. Bu jarayon avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniyalarni ekologik marketing strategiyalarini ishlab chiqish hamda brend imijini "yashil texnologiyalar" bilan bog'lashga undamoqda.

Jahon avtomobil brendlarining marketing strategiyalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ko'plab kompaniyalar brend kapitalini oshirish maqsadida innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratmoqda. Masalan, elektromobillar ishlab chiqaruvchi ayrim kompaniyalar jahon bozorida innovatsion brend sifatida shakllanib, qisqa vaqt ichida katta bozor ulushini egallashga erishgan. Shu bilan birga, an'anaviy avtomobil ishlab chiqaruvchilari ham elektromobillar va gibrid avtomobillar ishlab chiqarishni kengaytirish orqali o'z brend strategiyalarini qayta shakllantirmoqda [15]. Bu jarayon marketing strategiyasi, mahsulot strategiyasi va brend boshqaruvi o'rtasidagi integratsiyani yanada kuchaytiradi.

Tahlillar shuni ham ko'rsatadiki, avtomobil sanoatida marketing va brend strategiyalarining integratsiyasi iste'molchi tajribasini yaxshilash orqali amalga oshiriladi. Zamonaviy avtomobil kompaniyalari mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirish maqsadida servis xizmatlari, kafolat tizimi, texnik qo'llab-quvvatlash hamda raqamli xizmatlar tizimini rivojlantirmoqda. Bunday yondashuv brendga bo'lgan ishonchni oshirish va mijozlar sodiqligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Avtomobil sanoatida marketing va brend strategiyalarining integratsiyasi jarayonini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ushbu integratsiya quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi: mahsulot innovatsiyasi va brend imijining uyg'unlashuvi, raqamli marketing vositalari orqali brend kommunikatsiyalarining rivojlanishi, ekologik marketing strategiyalarining joriy etilishi hamda iste'molchi tajribasiga asoslangan marketing yondashuvlarining kengayishi. Natijada avtomobil kompaniyalari global bozorda barqaror raqobat ustunligini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda (1-rasm).



1-rasm. Avtomobil sanoatida marketing va brend strategiyalarining integratsion modeli¹⁰

10 Muallif ishlanmasi.



Mazkur sxemada avtomobil sanoatida marketing va brend strategiyalarining o'zaro integratsiyasi jarayoni tasvirlangan. Unda innovatsion mahsulotlar, raqamli marketing, marketing kommunikatsiyalari hamda servis xizmatlari marketing strategiyasining asosiy yo'nalishlari sifatida ko'rsatilgan bo'lib, ular brend imiji, brend xabardorligi, brend assotsiatsiyalari va brendga sodiqlik kabi brend strategiyasi elementlari bilan o'zaro bog'langan. Ushbu jarayonlarning integratsiyasi natijasida korxonaning raqobatbardoshligi oshadi, brend kapitali ortadi hamda bozordagi ulushi kengayadi va mijozlar sodiqligi mustahkamlanadi.

O'zbekiston avtomobil bozori ham so'nggi yillarda jadal rivojlanayotgan sanoat tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilda mamlakatda avtomobil savdosi 250 ming dona atrofida bo'lgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 380 ming donaga yetgan. 2024-yilda esa mamlakatda 400 mingdan ortiq avtomobil sotilgan. 2025-yil yakunlariga ko'ra, avtomobil savdosi 420 ming donadan oshgani qayd etilgan. Bu jarayon O'zbekiston avtomobil bozorida raqobatning kuchayib borayotganini hamda marketing va brend strategiyalarining ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda mamlakat avtomobil bozorida yangi brendlarning kirib kelishi, elektromobillar importining oshishi hamda raqamli marketing texnologiyalarining joriy etilishi kuzatilmoqda. Ayniqsa, avtomobil kompaniyalari ijtimoiy tarmoqlar marketingi, onlayn savdo platformalari hamda raqamli reklama kampaniyalari orqali iste'molchilar bilan faol kommunikatsiya o'rnatmoqda. Shu sababli avtomobil sanoatida marketing va brend strategiyalarining integratsiyasini rivojlantirish, xalqaro tajribalarni o'rganish hamda innovatsion marketing yondashuvlarini joriy etish O'zbekiston avtomobil sanoatining global raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot doirasida avtomobil sanoatida marketing va brend strategiyalarining integratsiyasi masalasi ilmiy jihatdan tahlil qilindi hamda ushbu jarayonning avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniyalar raqobatbardoshligini oshirishdagi ahamiyati asoslab berildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy avtomobil sanoatida marketing strategiyasi va brend boshqaruvi tizimining o'zaro integratsiyasi kompaniyalarning bozor ulushini kengaytirish, iste'molchilar sodiqligini shakllantirish hamda brend kapitalini oshirishda muhim strategik omil hisoblanadi. Ayniqsa, global avtomobil bozorida raqobatning kuchayishi sharoitida kompaniyalar nafaqat mahsulot sifati va texnologik innovatsiyalarga, balki marketing kommunikatsiyalari hamda brend imijini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratmoqda.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, so'nggi yillarda avtomobil sanoatida marketing va brend strategiyalarining integratsiyasi bir qator muhim omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, innovatsion texnologiyalar, xususan, elektromobillar, avtonom boshqaruv tizimlari hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi avtomobil brendlarning marketing strategiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ikkinchidan, raqamli transformatsiya jarayonlari natijasida marketing kommunikatsiyalarining yangi shakllari paydo bo'lib, avtomobil kompaniyalari ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar va onlayn savdo platformalari orqali iste'molchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot o'rnatish imkoniyatiga ega bo'ldi. Uchinchidan, iste'molchilar xulq-atvoridagi o'zgarishlar brend strategiyalarini mijozlarga yo'naltirilgan marketing yondashuvlari bilan uyg'unlashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, marketing va brend strategiyalarining integratsiyasi avtomobil kompaniyalariga bir qator strategik ustunliklarni taqdim etadi. Avvalo, marketing kommunikatsiyalarining brend strategiyasi bilan uyg'unlashuvi brend tanilish darajasini oshiradi hamda kompaniyaning bozordagi imijini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, innovatsion marketing texnologiyalaridan foydalanish iste'molchilar ehtiyojlarini chuqur o'rganish va ularga mos mahsulotlar ishlab chiqish imkonini beradi. Natijada kompaniyalar global avtomobil bozorida barqaror raqobat ustunligini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tadqiqot natijalari asosida avtomobil sanoatida marketing va brend strategiyalarining samarali integratsiyasini ta'minlash bo'yicha bir qator ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Birinchidan, avtomobil kompaniyalarida marketing strategiyasini ishlab chiqishda brend boshqaruvi tamoyillarini chuqur integratsiyalash zarur. Bunda marketing strategiyasi nafaqat mahsulotni bozorda targ'ib qilish vositasi sifatida, balki kompaniya brendining uzoq muddatli rivojlanish strategiyasining muhim elementi sifatida qoralishi lozim.

Ikkinchidan, avtomobil sanoatida raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Zamonaviy iste'molchilar avtomobil xarid qilish jarayonida internet resurslari, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn platformalardan faol foydalanmoqda. Shu sababli avtomobil kompaniyalari raqamli marketing strategiyalarini rivojlantirish orqali brend tanilishini oshirish hamda mijozlar bilan samarali kommunikatsiya o'rnatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Uchinchidan, avtomobil brendlarning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarur. Elektromobillar ishlab chiqarishni kengaytirish, ekologik toza texnologiyalarni qo'llash hamda aqlli transport tizimlarini rivojlantirish avtomobil brendlarning global bozordagi imijini mustahkamlashga xizmat qiladi.



To'rtinchidan, avtomobil kompaniyalarida mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda mijozlar ehtiyojlarini chuqur o'rganish, servis xizmatlari sifatini oshirish hamda iste'molchilar bilan uzoq muddatli munosabatlarni shakllantirish brend sodiqligini oshirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston avtomobil sanoatida marketing va brend strategiyalarining integratsiyasini rivojlantirish uchun xalqaro tajribalarni o'rganish va zamonaviy marketing yondashuvlarini joriy etish zarur. Bu jarayon milliy avtomobil sanoatining global avtomobil bozorida raqobatbardoshligini oshirish hamda mahalliy avtomobil brendlarining xalqaro miqyosdagi imijini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, avtomobil sanoatida marketing va brend strategiyalarining integratsiyasi zamonaviy bozor sharoitida korxonalar faoliyatining samaradorligini oshiruvchi muhim strategik omil hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalar, raqamli marketing vositalari hamda iste'molchi tajribasiga asoslangan marketing yondashuvlari brend strategiyalarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari sifatida namoyon bo'lmoqda. Kelgusida avtomobil sanoatida marketing va brend boshqaruvi tizimini takomillashtirish, marketing strategiyalarini rivojlantirish hamda innovatsion marketing texnologiyalarini keng qo'llash avtomobil kompaniyalarining xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hollensen, S. Marketing Management: A Relationship Approach. 3rd ed. Pearson Education Limited, 2015. – 824 p.
2. McKinsey & Company. The Future of Mobility: Transforming the Automotive Industry. McKinsey Global Institute Report, 2023. – 150 p.
3. World Bank. Global Economic Prospects 2024. Washington, DC: World Bank Publications, 2024. – 256 p.
4. Organisation Internationale des Constructeurs d'Automobiles (OICA). World Motor Vehicle Production Statistics. Paris, 2024. – 85 p.
5. UzAuto Motors. Financial Statements (1H-2025). Available at: <https://uzautomotors.com/documents/financial-statements-uam-1h-2025-with-signature-and-stamp.pdf>
6. Aaker, D. Managing Brand Equity: Capitalizing on the Value of a Brand Name. New York: The Free Press, 1991. – 336 p.
7. Keller, K. Strategic Brand Management: Building, Measuring, and Managing Brand Equity. 4th ed. Pearson Education Limited, 2013. – 608 p.
8. Kapferer, J. The New Strategic Brand Management: Advanced Insights and Strategic Thinking. London: Kogan Page Publishers, 2012. – 512 p.
9. Kotler, P., Keller, K. Marketing Management. 15th ed. Pearson Education, 2016. – 714 p.
10. Голубков, Э. Маркетинг: стратегии, планы, структуры. Москва: Финпресс, 2003. – 496 с.
11. Романов, А. Маркетинг. Москва: ЮНИТИ-ДАНА, 2005. – 560 с.
12. Vahobov, A., Xajibakiev, Sh., Tadjibayeva, D. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2014. – 464 b.
13. Salimov, B. Marketing boshqaruvi. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2018. – 312 b.
14. UNIDO. Industrial Development Report 2024: Turning Challenges into Sustainable Industrial Development. Vienna: United Nations Industrial Development Organization, 2024. – 280 p.
15. International Energy Agency (IEA). Global EV Outlook 2024: Trends in Electric Mobility. Paris: IEA Publications, 2024. – 320 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>